

TOHIR MALIKNING "MURDALAR GAPIRMAYDI" ASARIDA KINOYANING  
QO'LLANISHI

Shavkat Niyozov

*Buxoro davlat universiteti lingvistika o'zbek tili  
ta'lim yo'nalishi 2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kinoya so'zining ma'nosi, uning ma'nodoshlari, ta'rifi, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" asarida kinoyaning qo'llanilishi, asaridagi og'zaki, dramatik va vaziyatli kinoyaning bir biridan farqi asardan olingan misollarda ochib berilgan. Bundan tashqari, adib o'z asarida kinoyadan nima maqsadda foydalanishi, kinoyaning adabiyotda adabiy vosita sifatida ishlatilishi, undan samarali foydalanish yo'llari haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kinoya, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" asari, og'zaki kinoya, vaziyatli kinoya, dramatik kinoya, adabiy vosita, ko'chim.*

## ПРОЯВИТЕ САРКАЗМ В «МЕРТВЫХ НЕ ГОВОРЯТ» ТАХИРА МАЛИКА

**Аннотация:** *В данной статье на взятых примерах раскрывается значение слова ирония, его синонимы, определение, употребление иронии в произведении Тахира Малика «Мертвые не говорят», отличие устной, драматической и ситуативной иронии в его творчестве. Кроме того, какова цель использования писателем иронии в своем творчестве, упоминалась ирония в литературе, ее использование как литературного средства, способы ее эффективного использования.*

**Ключевые слова:** *ирония, произведение Тахира Малика «Мертвые не говорят», словесная ирония, ситуационная ирония, драматическая ирония, литературный прием, перевод.*

## GET SARCASTIC IN TAHIR MALIK'S "DEAD DOES NOT TALK"

**Abstract:** *In this article, the meaning of the word irony, its synonyms, definition, the use of irony in Tahir Malik's work "The dead do not speak", the difference between oral, dramatic and situational irony in his work are revealed in the examples taken from the work. In addition, what is the purpose of the writer's use of irony in his work, irony in literature its use as a literary tool, ways of its effective use were mentioned.*

**Key words:** *irony, Tahir Malik's work "The dead do not speak", verbal irony, situational irony, dramatic irony, literary device, translation.*

Kinoya, kesatiq keng tarqalgan termin va vosita hisoblanadi. U xoh hayotiy, xoh xayoliy, xoh badiiy bo'lsin, har doim atrofimizda uchraydi. Kinoya biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat. Masalan,

1. Bu buyruqdan so'ng "qorni to'q odam" dasturxonni yanlab yutayozdi.

2. Qamoq lagerining tabibi muolaja qilib ketgach, Tengiz Nuriddinni chaylaga boshladi, eski gazetalardan iborat "dasturxon" usti betartib edi.

3. Quyosh yoz fasliga xiyonat qilib, kuzning zaharli nafasi hukmini o'tkaza boshlagani uchun chaylaga joylashgan "politbyuro"ning "shtab-kvartirasi" barakka ko'chirilgan edi.

4. Qamoq muddati nihoyasiga yetay deganda bir qiliq chiqarardi-yu, o'zining ta'biri bilan aytilganda, "kurort mavsumi cho'zilardi".

Kinoyaning asosiy uch turi mavjud: dramatik, vaziyatli, og'zaki. Hikoyalarni bayon qilishda eng ko'p qo'llaniladigan kinoya turi dramatik kinoya deyiladi. Kinoya shunday ko'chim turiki, unda so'zlar o'zining asl ma'nosidan tubdan farq qiladigan maqsad qilingan ma'noda tasvirlanishi mumkin. Bundan tashqari, umuman kutilganidan boshqacha tarzda tugaydigan vaziyatni tasvirlash uchun ham foydalansa bo'ladi. Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" asarida qamoqqa tushib qolgan Tursunali va qamoqxonada nazoratni butkul qo'lga olgan Tengiz o'rtasidagi muloqotda va ularning o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlashda ijodkor tomonidan kinoyadan unumli va o'rinli foydalanilgan: U buyruqqa mahtal holda somelik ila turardi: "Politbyuro"ni to'pla. Bu ham dramatik kinoyaning yana bir ko'rinishidir.

Kinoyada so'z yoki tushuncha nutqda haqiqiy ma'nosiga teskari, hatto uni inkor qiluvchi mazmun kasb etadi. Kinoya ko'chim turi sifatida majoziy so'zlar orqali masxaralash va pichingni ifodalaydi. Kinoyada kulgililik jiddiylik niqobi ostida yashirinadi. Kinoya xalq og'zaki ijodida ham, badiiy adabiyotda ham keng tarqalgan. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal", Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Mayiz yemagan xotin" singari asarlarda kinoya badiiylik yaratishga xizmat qilgan.

Ko'plab ijodkorlar ko'chimning kinoya usulidan har xil maqsadlarda foydalanganlar. Bugungi maqolada atoqli o'zbek nosiri, detektiv janrda mahorat bilan qalam tebratgan ijodkor Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" asaridagi kinoyalarning qo'llanilishini tahlil qilamiz. Dastlab asar bosh qahramoni Tursunali tushgan qamoqxonada o'z nazoratini qo'lga olgan Tengiz haqida gap borar ekan, u o'z umrini qamoq lageriga bag'ishlagan o'g'rilardan edi. O'zining ta'biri bilan aytganda, "kurort mavsumi cho'zilardi". Ijodkor tomonidan qamoq lagerining "kurort" deya nomlanishida ham kinoyaning o'rni bor. Keyingi o'rinlarda Matluba "xolis kuch"- Valijon hamrohligida kundoshi bilan ittifoq tuzish uchun emas, yuzma-yuz "jang"ga kirish uchun borar edi. Bu o'rinlarda "xolis kuch", "jang" so'z va birikmalari ko'chma ma'noda qo'llanilib, ko'chimning kinoya usulini hosil qilgan. Asarda Valijon Tursunaliga sadoqatli inson sifatida ta'riflangan. "Jang" esa Tursunalining xotini bo'lmish Matluba va uning jazmani bo'lmish Nafisa orasidagi ayollarga xos bo'lgan dahanaki adi-badi nazarda tutilgan. Yoinki, Matluba va kelini Nazmi o'rtasidagi suhbatning ijodkor tomonidan: "Yaxshi ko'rganining boisi-Nazmi bilan besh daqiqa birga bo'lsa bas, barcha yangiliklardan xabardor bo'ladi. Ranjiganining boisi- uning tashrifi haqidagi ma'lumot ham ertasigayoq "xotinlar telegrafi" orqali tarqaydi. Tursunali qamaligandan beri bu "telegraf" to'la quvvat bilan ishlaydi. Matluba ba'zan "gap shu yerda qolsin", deb keliniga qattiq tayinlaydi. Kelinining "og'zi mahkam" tasvirlanishi kinoyaga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Bu o'rinda "og'zi mahkam" iborasi teskari ma'noda, ya'ni Nazmining og'zi

bo‘shligidan darak beradi. Kinoyaning uslubiy vosita ekanligi haqida fikr yuritar ekanmiz, u badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat.

Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydi” asarida o‘g‘riboshilar nazariga tushgan Nuriddin bilan bo‘lgan holatda : Koshak “shunaqami?” deganday Nuriddinga zimdan qarab qo‘ydi. Tengiz aytmasa ham Nuriddinning kimligi, ochiqlikda nima qilgani bu yerdagilarning hammasiga ayon edi. Bu choyxo‘rlik, bu xizmat bo‘lajak o‘g‘ri bilan “yaqinroq tanishish” maqsadida uyushtirilgandi. Jinoyat olami vakillari orasida “yaqinroq tanishish” singari birikmaning qo‘llanilishi uslubiy g‘alislik hisoblanadi.